

**BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA TABIIY FANNI O‘QITISHDA  
INTEGRATSION YONDASHUVLARGA XOS TOPSHIRIQLAR  
VA ULARNING O‘ZIGA XOS O‘RNI**

***G‘oyibnazarova Nargiza Raximjonovna***

*Namangan viloyati pedagogik mahorat markazi*

*Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta‘lim metodikalari*

*kafedrası katta o‘qituvchisi*

**Annotation:** Mazkur maqola boshlang‘ich ta‘limda tabiiy fanlarni o‘qitishda integratsiyalashgan ta‘limiy o‘yin topshiriqlar orqali o‘quvchilarga bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish va topshiriqlarni ularni topshiriqlarni o‘tkazish yo‘llari haqida yozilgan.

**Kalit so‘zlar:** raqam, tabiiy fan, topshiriq, o‘quvchilar, integratsiya, boshlang‘ich ta‘lim, hayotiy ko‘nikmalar, axborotni kreativlik ijodkorlik

**ЗАДАЧИ КОМПЛЕКСНЫХ ПОДХОДОВ В ОБУЧЕНИИ  
ЕСТЕСТВЕННОСТИ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ И ИХ  
СПЕЦИФИЧЕСКОЕ МЕСТО**

---

**Гойибназарова Наргиза Ракхимдзхоновна**

Старший преподаватель кафедр методов дошкольного, начального и специального образования Педагогического центра Наманганской области

**Аннотация:** В данной статье написано о способах развития знаний и умений учащихся посредством комплексных учебных игровых задач при преподавании естествознания в начальной школе, а также о способах передачи им заданий.

**Ключевые слова:** численность, естествознание, задание, учащиеся, интеграция, начальное образование, жизненные навыки, информация, творчество, креативность.

**TASKS SPECIFIC TO INTEGRATED APPROACHES IN TEACHING NATURAL  
SCIENCE IN PRIMARY EDUCATION AND THEIR SPECIFIC PLACE**

---

**Goyibnazarova Nargiza Rakhimjonovna**

Senior teacher of the Department of Pre-School, Primary and Special Education  
Methods of the Pedagogical Center of Namangan Region

**Annotation:** This article is written about ways to develop students' knowledge and skills through integrated educational game tasks in the teaching of natural sciences in primary education, and ways to pass tasks to them.

**Key words:** number, natural science, assignment, students, integration, primary education, life skills, information, creativity.

Boshlang'ich ta'lim bosqichida tabiiy fanlarni o'qitish bolalarning atrof-muhit haqidagi bilimlarni kengaytirish, kuzatuvchalik va tahlil qilish ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu fan bolalarga tabiat hodisalari, tirik organizimlar, moddalar va ularning xususiyatlari haqida boshlang'ich tushunchalar beradi. Boshlang'ich ta'lim – shaxs shakllanishi davrining eng muhim bosqichi. Bu davr bola ong ostida olamni anglash, tasavvur va bilimlar poydevorini tiklash pallasini bo'lgani uchun ham nozik e'tibor talab etadi.

Ayni shu pallada bola o'zida «o'quvchi shaxsi»ni yaratadi, maktabga va ta'lim olishga nisbatan qiziqishni, mehrni tuyadi, ilm yo'lidagi kelgusi natijalar uchun kuch to'plashni boshlaydi.

Bu esa, zamonaviy pedagogika oldidagi doimiy va murakkab masala sifatida darsliklarning g'oyaviy, tarbiyaviy va ma'rifiy saviyasiga jiddiy yondashishni talab etadi.

Integratsion yondashuv ularni nafaqat zamonaviy kasb-hunarlar uchun, balki global muammolarni hal qilishda faol ishtirok eta oladigan, mustaqil va mas'uliyatli fuqarolar sifatida tayyorlashga imkon yaratadi.

Shiddat bilan rivojlanayotgan zamonamizda tabiiy fanlarning o'rni va yutuqlari beqiyosdir. Inson hayoti tabiat bilan uzviy bog'liq va bu bog'liqlik sayyorada muvozanat bo'lishini ta'minlaydi. Shunday ekan boshlang'ich ta'limda ham tabiiy fanlar bilan boshqa fanlarning integratsiyasini ko'rish mumkin.

Quyida beriladigan ta'limiy xarakterdagi topshiriqlar o'quvchilarning turli fanlarga bog'liq holda o'rganish imkonini beradigan ta'limiy topshiriqlar asosida yanada darslar integratsiya qilish imkonini beriladi.

Tajribalar loyiha ishlari orqali ham darslar uyg'unlashib mavzularni egallashda ijobiy natijalarga olib keladi.

### **“Kayfiyatim axboroti ”metodi**

Bu metod orqali o'quvchilarda o'z kayfiyatlari haqida ma'lumot berishni fandagi mavzularga, o'rganganlariga aynan hozirgi vaqtdagi o'z kayfiyatiga mos tarzda axborot berishi kerak bo'ladi. Unda uni turli mavzularga bog'lab aytish mumkin. Namunada biz tabiiy fanga bog'lab tabiatga, atrofimizni o'rab turgan voqea va hodisalarga bog'lab aytamiz

M: Mening kayfiyatim quyoshdek porlab turibdi

Mening kayfiyatim tog'lardek yuksak

Mening kayfiyatim suvdek tiniq.

Bunda kayfiyat haqida axborot berish bilan abirga quyoshga xos xususiyat ham esga olindi, ikkisi haqida ham ma'lumotlar orqali bog'lab aytiladi.

Tabiiy fanlarda tajriba - o'qitish metodi bo'lib, uning yordamida o'rganilayotgan hodisa qonuniyatini aniqlashga yordam beruvchi sharoitlar yaratiladi. Tajribalar o'tkazishda o'quvchilarda boshqa metodlar bilan egallash mumkin bo'lmagan tabiiy fan tasavvurlari shakllanadi. Tajribalar atrof olamni bilib olishning qiziqarli va samarali metodidir. U dunyoning moddiyligini, uni idrok qilib olish mumkinligini tasdiqlovchi har xil tabiat jismlarining xossalarini bilib olishning chinakam ilmiy metodidir, Amaliy uslublarda quyidagi ishlar amalga oshirilish mumkin.

O'quvchilarning tarqatma didaktik material bilan turli narsalar yasash;

Rasm chizish;

Tabiat ob'ektlarini tanib olish va aniqlash bo'yicha ishlar;

Hodisalarni kuzatish va qayd qilish ishlari;

Tajriba o'tkazishlari (tajriba vositasida masalalarni hal qilish) **kiradi**.

Tabiat fanda ham dunyoning xilma-xilligini anglash g'oyasi, dunyoning axlitligini anglash g'oyasi, ona zaminga hurmat hissini shakllantirish g'oyasi o'rganish orqali tabiiy fan bo'yicha bilim va ko'nikmalar egallab boriladi.

Quyidagi barha topshiriqlar o'quvchilarni kreativ va ijodkorlik bilan yondashishga hamda hamkorlikda ishlashga o'rgatadi. Bu topshiriqlar orqali tajriba va loyiha ishida amalga oshirgan ishlarini mustahkamlash mumkin bo'ladi.

“Raqam va sonlarda tabiiy fan”

O'quvchilarga turli raqam va sonlar ko'rsatiladi. Ular ekranda Vatman qog'ozda yoki doskada bo'lishi mumkin. Ushbu raqamlar sizlarga tabiiy fanga oid ya'ni bog'liq nimalarni eslatmoqda? Tabiatda uchraydigan jonli va jonsiz narsalarning turi, soni va boshqa jihatlari shu raqam va sonlarga bog'lashi kerak bo'ladi.

**1,2, 3,4,7,,6, 12, 21,25,31,60, 100,21,40**

**Topshiriq:** Buklash orqali shakl yasash va uni tabiatdagi biror predmetga o'xshatish. Masalan qog'ozni ikki tomondan tog'ri to'rtburchak holida buklash va uni yuzalaridan biriga tabiatdagi jonli va jonsiz biror narsani rasmini chizing Masalan:

**Topshiriq:** Qatorning chap tomonida o'tirganlar oddiy burglar nomini sanab yozadilar. Qatorning o'ng tomonida o'tirganlar murakkab burglar nomini yozadilar.

Oddiy barglar – siren bargi, chin or bargi, olma bargi,

Murakkab burglar: aktsiya, atirgul, chinor

Daraxt barglari rasmini chizing. Uni siz tanlagan daraxtga tegishli ekanini ayting.



**Topshiriq: “Jonli va jonsiz tabiat ”**

1- juftlikda

1- qator: faqat jonli tabiatga nimalar kiradi?

**J:** odamlar, hayvonlar, o‘simliklar

2- qator: juftliklari faqat jonsiz tabiatga nimalar kiradi?

**J:** havo, suv, tosh, yulduzlar, quyosh...

3- qator: juftliklari faqat suvda yashaydigan jonivorlarni yozing

**J:** Baliq, delfin, suv toshbaqasi, dengiz oti, qisqichbaqa, medusa, sakkizoyoq, kasadka, morj

Assisment ingliz tilidan olingan bo‘lib ”taqimot“, “o‘z-o‘zini baholash “degan ma’nolarni bildiradi. Uni o‘tkazishda sinf jamoasi bilan, yoki guruhlarda o‘tkazsa bo‘ladi. U quyidagi jadval ko‘rinishida bo‘ladi. Unda test, muammoli sabvol, amaliy topshiriqlar o‘rin oladi.

|                                                                                                                                                     |                                                                                                             |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <p><b>Test.</b></p> <p>Qaysi o‘simlik urug‘idan ko‘paytiriladi</p> <p>A. Piyoza</p> <p>B. Anor</p> <p>C. Kartoshka</p>                              | <p><b>Muammoli savol</b></p> <p>O‘simliklar nimani yutadi?</p> <p>O‘simliklar korbanat angdridni yutadi</p> |
| <p><b>Tabiat haqidagi maqolni to‘ldiring.</b></p> <p>Bahorgi ... kuzgi barokat,</p> <p>Yer haydasang kuz hayda</p> <p>Kuz haydamasang yuz hayda</p> | <p><b>Amaliy topshiriq:</b></p> <p>Suvning uch holatini yozing</p> <p>Suyuq, bug‘, muz</p>                  |

Boshlang‘ich ta’lim jarayonida amaliy darslarni tashkil etish natijasi qo‘llash ko‘nikmasini oshiradi. O‘quvchilarning shaxs sifatida har tomonlama rivojlanishiga ko‘maklashadi. Bu yondashuv ularni nafaqat zamonaviy kasb-hunarlar uchun, balki

global muammolarni hal qilishda faol ishtirok eta oladigan, mustaqil va mas’uliyatli fuqarolar sifatida tayyorlashga imkon yaratadi.

Tabiiy fanlar dunyoqarashni shakllantiradi. Bolalar olamni anglaydilar. Tabiatdagi qonuniyatlarni tushuna boshlaydilar. Ular hayotimizga ta’sir ko’rinishini bilib boradilar. O’quvchilarda bu dars orqali amaliy ko’nikmalar rivojlanadi. Ularni aniq fan ya’ni tabiiy fanlarga qiziqishi oshadi. Tabiiy fanni o’rganarekan, o’quvchilar ekologik muammolarni ham tushunadilar, Ular buni tushunish orqali atrofga ehtiyotkorona munoabatda bo’lshg o’rganadilar. Boshlang’ich ta’limda o’quvchilar kuzatish va tajribalar orqali tushuna boradilar. Yuqoridagi interaktiv o’yin topshirilar ham ularni bilim olishini yanada qiziqarl bo’lishini ta’minlaydi. Tabiiy fanlarni o’qitish kelajakda ilmiy dunyoqarashini shakllantiradi

### **Adabiyotlar ro’yxati:**

1. O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi: 2023-yil 30-aprelda qabul qilingan [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-6445145>.
2. O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi qonuni: 2020-yil 23-sentyabr, O’RQ-637-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/5013007>.
3. Ergasheva M. O’quvchilarning tabiiy-ilmiy savodxonlik monitoringi va topshiriqlar bilan ishlash metodikasi. Metodik qo’llanma. – Toshkent: O’zbekiston, 2023. – 167 b.
4. Eshqobilov S. O’quv-tarbiyaviy ishlarni boshqarishda axborot tizimlaridan foydalanish. Metodik qo’llanma – Toshkent: A. Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti, 2022. – 74 b.
5. Jumanazarov S. Ta’limda raqamli texnologiyalar. Uslubiy qo’llanma. – Toshkent: Lesson Press, 2023. – 46 b.